

5-amaliy mashg'uloti

Mavzu: Biologiya (Botanika) fanining darslarini o'tkazish. Darsini kuzatish va tahlil etish.

Amaliy mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarni "hujayra" mavzusini o'rganish metodikasi, anatomik mazmundagi darslarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinflari uchun botanikadan tuzilgan o'quv dasturi va darsliklarini tahlil qilish asosida ularni muayyan mazmundagi darslarga ajratishni;
2. "hujayra" mavzusini o'rganishi va anatomik mazmundagi darslarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
3. Boblar tarkibidan o'rin olgan mavzular muayyan darslar tizimi ekanligini anglashi;
4. Anatomik mazmundagi darslarda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini;
5. Anatomik mazmundagi darslarda ta'lim mazmuni, metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar: "botanika" darsligi, "o'simlik hujayrasi"

Jadvali, vaqtinchalik mikropreparat tayyorlash uchun kerakli jihozlar

amaliy mashg'ulotida foydalaniladigan texnologiya:

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash metodi.

Amaliy mashg'ulotining borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish.
3. "hujayra" bobidagi mavzularni tahlil qilish.
4. "hujayra" bobi uchun mavzuli-reja tuzish.
5. "o'simlik hujayrasining xilma-xilligi" mavzusi bo'yicha dars ishlanmasini loyihalash.
6. "piyoz po'sti hujayrasini mikroskopda ko'rish" amaliy mashg'ulotini o'tkazish metodikasi

botanika darslarida o'quvchilarni o'simliklarning xilma-xilligi, tashqi va ichki tuzilishi, organlari ularda boradigan hayotiy jarayonlar, sistematik guruhlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiriladi. Shunga ko'ra har bir darsda o'quvchilarda morfologik, anatomik, fiziologik, ekologik, sistematik, evolyustion, genetik tushunchalar bir-biri bilan uyg'un ravishda tarkib toptiriladi.

Agar mavzularning mazmuni tahlil etilsa, ularda bu tushunchalar teng qiymatda emasligi, qaysidir tushuncha ustunligi va qolgan tushunchalar ularga bog'liq holda tarkib toptirilishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Anatomik mazmundagi darslarda asosan o'simlik organlarining ichki tuzilishi, hujayraning o'ziga xos tuzilishi, organoidlari va ularning vazifalari, to'qimalar haqidagi ma'lumotlar asosiy o'rinni egallaydi.

5-sinf “botanika” o‘quv kursi dasturidan o‘rin olgan “hujayra” bobi anatomik mazmundagi darslar sirasiga misol bo‘ladi. O‘quv dasturida “hujayra” bobini o‘rganish uchun 7 soat vaqt, shundan 2 soati amaliy mashg‘uloti uchun ajratilgan.

Quyidagi jadvaldan foydalanib “hujayra” bobi bo‘yicha mavzuli-reja tuzish tavsiya etiladi.

Dars №	Darsning mavzu-Si, asosiy tushunchalar	O‘rganiladigan masalalar	Ko‘rgazma vositalari	Darsdan tashqari ishlar	Uy vazifasi
5					
6					
7					
8					
9					
10					
11					

Biologiya o‘qituvchisi mavzuli-reja asosida mavzular bo‘yicha dars ishlanmalarini loyihalaydi.

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARI UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLARI

O‘FE	O‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun o‘quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar
1-O‘FE	<p>Maqsad: “hujayra” bobini tahlil qilish.</p> <p>1. 5-sinf “botanika” darsligidagi “hujayra” bobini tahlil qiling. Undan qanday mavzular o‘rin olgan.</p> <p>2. “hujayra” bobini o‘rganish uchun mavzuli-reja tuzing.</p> <p>3. Har bir mavzuda qaysi tushunchalar ustun ekanligini aniqlang.</p> <p>4. Anatomik mazmundagi darslarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.</p>	<p>Kichik guruh a‘zolari bilan hamkorlikda ishlang, Savol-javobda faol ishtirok eting</p>
2-O‘FE	<p>Maqsad: anatomik mazmundagi dars ishlanmasini loyihalashni o‘rganish.</p> <p>1. “o‘simlik hujayralarining xilma-xilligi” mavzusi bo‘yicha dars ishlanmasini loyihalang.</p> <p>2. Darsning borishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo‘llarini belgilang.</p>	<p>Kichik guruh a‘zolari bilan hamkorlikda ishlang, Savol-javobda faol ishtirok eting</p>

3-O'FE	Maqsad: "piyoz po'sti hujayrasini mikroskopda ko'rish" amaliy mashg'ulotini o'tkazishni o'rganish 1. Darslikdan mazkur amaliy mashg'ulotini o'tkazish bo'yicha berilgan ko'rsatmani ko'rib chiqing. Ushbu amaliy mashg'ulotini o'tkazish uchun o'qituvchi nimalarga e'tiborini qaratishi lozimligini aniqlang. 3. Mazkur amaliy ishini bajaring. O'quvchilarda qanday ko'nikmalar tarkib toptirilishini aniqlang.	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang, Savol-javobda faol ishtirok eting
4-O'FE	Maqsad: "botanika" o'quv fanidagi anatomik mazmundagi darslarni aniqlash. 1. "botanika" darsligidagi anatomik mazmundagi darslarni aniqlang. 2. Ushbu mavzularda anatomik tushunchalar qanday rivojlantirilishini aniqlang va 1-jadvalni to'ldiring.	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang, Savol-javobda faol ishtirok eting

1-jadval

Bob va mavzular	Hujayra tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlar	O'simlik to'qimalaridagi o'ziga xos xususiyatlar
Ildiz		
Poya		
Barg		

Uyga vazifa

1. "Ildiz" bobini tahlil qiling va quyidagi jadvalni to'ldiring.
"ildiz" bobining tahlili

Mavzu	Morfologik tushuncha	Anatomik tushuncha	Fizilogik tushuncha	Sistematik tushuncha	Ekologik tushuncha